



TURKISTON MINTAQASIDA “YANGI IQTISODIY SIYOSAT” NING  
AMALGA OSHIRILISHI.

*Jo‘rayev Jaloliddin Sirojiddinovich*

*Oriental Universiteti Tarix yonalishi 2-kurs magistranti*

*Telefon raqam: +998 99 946-06-77*

**РЕАЛИЗАЦИЯ «НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ» В  
ТУРКЕСТАНСКОЙ РЕГИОНЕ.**

*Джураев Джалалиддин Сирожиддинович*

*Магистрант 2 курса исторического*

*факультета Восточного университета*

*Телефон: +998 99 946-06-77*

**IMPLEMENTATION OF THE "NEW ECONOMIC POLICY" IN THE  
TURKESTAN REGION.**

*Jurayev Jaloliddin Sirojiddinovich*

*Oriental University 2nd year graduate in history*

*Phone number: +998 99 946-06-77*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asrning 20-yillarda Turkiston o‘lkasida Yangi Iqtisodiy Siyosatning (YaIS) amalga oshirilishining xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. “Harbiy kommunizm” siyosatidan iqtisodiyotni liberallashtirishga o‘tishning asosiy jihatlari, jumladan, xususiy sektorni tiklash, tovar-pul munosabatlarini rivojlantirish va agrar islohotlar tahlil qilinadi. An'anaviy iqtisodiy tuzilmalar muhim rol o'ynagan ko‘p millatli mintaqada Yangi Iqtisodiy Siyosatni o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Yangi Iqtisodiy Siyosatning Turkiston aholisining qishloq xo‘jaligi, sanoat, savdo va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga ta’siri ko‘rib chiqiladi.



**Kalit so‘zlar.** yangi iqtisodiy siyosat, qishloq xo‘jaligi, liberallashtirish, sanoat korxonalari, shoxobcha, tovar-pul munosabatlari, trest, sug‘urta, davlat kapitalizmi, gidroelektrostansiya.

**Абстрактный.** В данной статье рассматриваются особенности реализации новой экономической политики (НЭП) в Туркестане в 20-е годы 20 века. Анализируются основные аспекты перехода от политики «Военного коммунизма» к либерализации экономики, включая восстановление частного сектора, развитие товарно-денежных отношений, аграрные реформы. Особое внимание уделено особенностям реализации НЭП в многонациональном регионе, где важную роль сыграли традиционные экономические уклады. Рассмотрено влияние НЭПа на сельское хозяйство, промышленность, торговлю и социально-экономическое положение населения Туркестана.

**Ключевые слова.** новая экономическая политика, сельское хозяйство, либерализация, промышленные предприятия, ветвь, товарно-денежные отношения, доверие, страхование, государственный капитализм, гидроэлектростанция.

**Abstract.** This article examines the features of the implementation of the New Economic Policy (NEP) in Turkestan in the 20s of the 20th century. The main aspects of the transition from the policy of "Military communism" to the liberalization of the economy are analyzed, including the restoration of the private sector, the development of commodity-money relations, and agrarian reforms. Particular attention is paid to the peculiarities of the implementation of the New Economic Policy in a multinational region where traditional economic structures have played an important role. The impact of the New Economic Policy on agriculture, industry, trade and socio-economic conditions of Turkestan population is considered.

**Key words.** new economic policy, agriculture, liberalization, industrial enterprises, branch, commodity-money relations, trust, insurance, state capitalism, hydroelectric power plant.

**Kirish.** XX asrning boshlarida Sovet Rossiysi jiddiy iqtisodiy inqirozga uchradi. 1917-yilgi inqilob va undan keyingi fuqarolar urushi sanoatning izdan chiqishiga, qishloq xo‘jaligining tanazzuliga va ocharchilikka olib keldi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun 1921-yilda sovet hukumati Yangi Iqtisodiy Siyosat (YaIS) ni joriy etdi. Ushbu siyosat iqtisodiyotni tiklash va bozor munosabatlarini qisman qayta joriy etishga qaratilgan edi.

Bu

siyosat Turkiston mintaqasida ham qo‘llanildi. Mintaqa asosan qishloq xo‘jaligi, xususan paxtachilik bilan shug‘ullanardi, shuningdek, hunarmandchilik va savdo faoliyati muhim ahamiyatga ega edi. YaIS sharoitida mahalliy dehqonlarga erkin savdo qilishga ruxsat berildi, kichik va o‘rta sanoat korxonalari tiklandi va iqtisodiy hayot biroz jonlandi.

1921-yil

20-aprelda

Turkiston ASSR MIQ oziq-ovqat, yem-xashak va xomashyo razvyorstkasini natural soliq bilan almashtirish to‘g‘risida dekret qabul qilgan edi. Asta-sekin qishloq xo‘jaligida ijobiy o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Rossiyadan mahalliy sanoat uchun asbob-uskunalar kela boshladi. Shaharlarda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun o‘rta va mayda korxonalar, savdo shoxobchalari va boshkalar ijara berildi. Iqtisodiyot liberallashtirildi, ukladlararo aloqalar qaytadan tuzildi. Markaz paxtachilik, ipakchilik kabi muhim xomashyo yetkazib beruvchi sohalarni, shuningdek, yirik korxonalarni davlat tasarrufida qoldirdi. Xususiy kapital bilan aksionerlik jamiyatlari tuzishga, ishchi kuchini yollashga ruxsat berildi. Lekin shunday bo‘lishiga qaramasdan, Turkiston sanoatida davlat sektorining ulushi bu paytda mutlaq ko‘pchilik - 93,1 foizni tashkil qilardi<sup>1</sup>.

Turkiston xalq xo‘jaligi inqirozdan jonlanish tomon asta-sekin yuz burdi. Bunda sovet hukumatining liberallashtirish siyosati ancha ta’sir qildi. Yangi iqtisodiy siyosat munosabati bilan Turkiston Respublikasi iqtisodiyotida paydo bo‘lgan siljishlar, ijtimoiy xo‘jalik sohasidagi o‘zgarishlar bu yerda bolsheviklar siyosatining biroz yumshaganligidan dalolat beradi. Turkistonda xalq xo‘jaligini tiklashda yangi iqtisodiy siyosat davrida ham bir qator jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yildi.

<sup>1</sup>. З. Кудратов, И. Шоймардонов - Узбекистон тарихи. 1-том, Т, 2019. 265 - бет.

Avvalo yangi iqtisodiy siyosat Turkistonda notekis amalga oshirildi. 1921-yili Turkistonda ekin maydonlari oldingi yildagiga qaraganda ancha kengaytirildi. Biroq keyingi uch yilda (1922-1924-yillar) ekin maydonlari yana qisqardi. 1924-yili Turkistonning asosan o‘zbeklar yashaydigan uchta oblasti (Farg‘ona, Samarqand, Sirdaryo)da ekin maydonlari ham, sug‘oriladigan ekin maydonlari ham urushdan oldingi davr (1913-yil)ning 60 foizi atrofida edi. Xullas, yangi iqtisodiy siyosat dastlabki yillarda o‘lka xalq xo‘jaligining asosiy sohasi - qishloq xo‘jaligiga sust ta’sir ko‘rsatdi.

Turkistonda sanoat asosan ikki yo‘l bilan rivojlandi: eski zavodlarni tiklash hamda yangi korxonalar va soha tarmoqlarini tashkil etish. Bunda birinchi galda paxtani qayta ishlaydigan korxonalar va xomashyo tayyorlashga alohida e’tibor qaratildi.

Turkiston

1921-yilda 40 ta paxta tozalash va 2 ta yog‘ zavodi qayta tiklandi. Toshkentda yiliga 120 000 pud kanakunjut yetkazib beradigan zavod qurilishi tugallandi<sup>2</sup>. 1923-yilga kelib, Turkistonda 23 ta, 1924-yili esa 95 ta paxta tozalash zavodlari ishgaga tushirildi. Ular ishlab chiqargan mahsulot 57,8 mln rublni tashkil qildi. Tiklash ishlari yog‘-moy sanoatida ham yuqori sur’atlar bilan bordi. 1923-yilda sanoat korxonalari 61 000 pud toza moy ishlab chiqargan bo‘lsa, 1924-yilga kelib bu miqdor 201 000 pudni tashkil etdi<sup>3</sup>.

Yangi iqtisodiy siyosat yo‘lining o‘ziga xos xususiyati - tovar-pul munosabatlarining jonlanishi savdo va ayirboshlash shakllarining «harbiy kommunizm» ga xos bo‘lgan turli cheklashlardan ozod bo‘lishi edi. Turkistonda erkin savdo 1921-yildan e’tiboran rivojlana boshlagan va tezda iqtisodiyotning ta’sirchan mexanizmiga aylangan bo‘lib, uning sog‘lomlashuviga 1922-1924-yillarda mamlakatda o‘tkazilgan pul islohoti ma'lum darajada yordam berdi. Davlat pul muomalasidagi turli tartibsizliklarga nisbatan chek qo‘ydi, muomalaga erkin almashtiriladigan valyuta (chervones) chiqarildi, uning kursi oltinga tenglashtirilgan edi. Natijada yopilgan bozorlar qayta tiklanib bordi. Bozorlar va yarmarkalar qayta ochilishi munosabati bilan banklar tarmog‘i, kredit va sug‘urta

<sup>2</sup>. Ўзбекистон МДА, 25-фонд, 3-рўйхат, 17-иш, 63-бет.

<sup>3</sup>. Ўзбекистон МДА, 25-фонд, 3-рўйхат, 17-иш, 95-96-бетлар.

xizmatlari tashkil etildi<sup>4</sup>.

Yangi iqtisodiy siyosat islohotlarining sanoat sohasida qo'llanilishi tarkibiy elementlaridan biri «davlat kapitalizmi» g'oyasi edi. U xo'jalik yuritishning nosotsalistik shakllarini vaqtincha tiklashni nazarda tutardi, biroq muhim korxonalar, birinchi navbatda, og'ir va yirik sanoat sotsalistik qayta qurishning asosiy ijrochisi, mulkdori va boshqaruvchisi bo'lgan davlat qo'lida shakllanayotgan edi.

Sanoat ishlab chiqarishining sotsalistik sektorida yetakchi bo'lgan yangi iqtisodiy siyosat yo'nalishi sanoatda va korxonalarda qat'iy rejalashtirishni va xo'jalik hisobini joriy etish asosida boshqaruvni keng miqyosda qayta qurishga qaratildi.

Ishlab chiqarish birlashmalari sifatida markazlashtirilgan trestlar davlatning sanoatni qayta tashkil etish siyosatida eng maqbul shakl deb e'tirof etildi. 1921-yilda ana shunday trestlardan 10 tasi tashkil etilib, ularga xo'jalik hisobiga o'tkazilgan 99 ta yirik korxona birlashtirildi. Bu trestlardagi ishchilar soni 5557 nafarni tashkil etgan. Trestlar ishlab chiqarish turlariga ko'ra birlashtirilgan. Masalan, metall sanoati korxonalari «Sanoatmetall» tresti (Trest Prommetall)ga, yoqilg'i sanoati korxonalari «Turkyokilgi» tresti (Turkoptrest)ga, binokorlik materiallari «Qurilish» trestiga, un-tegirmon sanoati korxonalari «Un» tresti (Turkgosmuktrest) ga birlashtirildi<sup>5</sup>. Keyinchalik, bu va boshqa trestlar «Turktorg», «Turkselioxoztorg», «Trestuglnefti», «Turkvino» kabi tashkilotlarga aylantirildi<sup>6</sup>. Qolgan mayda va o'rta sanoat korxonalari davlat tomonidan budjetni yengillashtirish uchun ijara berildi.

1921-yilda Xilkovo sement zavodi qurilishi yakunlandi. Farg'ona pillachilik fabrikasi, Toshkentda gidroelektrostansiya barpo etila boshlandi. Shu bilan birga bu vaqt ichida RSFSR XKS qaroriga binoan Rossiyaning markaziy sanoat rayonlaridan Turkiston o'lkasiga pillachilik, to'qimachilik, qog'oz fabrikalari uchun asbob-uskunalar, teri va sovun zavodlari uchun kerakli narsalar keltirildi. Ayni vaqtda ularning ishini yo'lga qo'yish uchun hududga

<sup>4</sup>. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. - 191-бет.

<sup>5</sup>. Ульмасбаев Ш.Н. Промышленные развитие Советского Узбекистана. — Т. 1958. 77-бет.

<sup>6</sup>. Ўзбекистон МДА, 663-фонд, 1-рўйхат, 355-иш, 18-бет.

ishchi va mutaxassislar yuborilgan edi. Masalaga tarixiy jihatdan xolislik bilan qaraganda Markaz Turkistonning sanoat bilan bo‘g‘liq imkoniyatlarini kengaytirish yuzasidan ba’zi chora-tadbirlar ko‘rdi.

Iqtisodiy o‘sish sur’atlari 1923-yil boshidan boshlab ayniqsa sanoatda ko‘zga tashlana boshladi. Turkistonda 1923-yil neftni ishlab chiqarish oldingiga qaraganda 60 foiz, un ishlab chiqarish 66 foiz, vinochilik 70 foiz, qand ishlab chiqarish 90 foiz ko‘paydi<sup>7</sup>. Shuningdek, mintaqaning xomashyo bazasi sifatida qolishi ham davom etdi.

### Xulosa.

Shunday qilib, 20-yillarning birinchi yarmida Turkistonda vujudga kelgan iqtisodiy vaziyatga umumiy baho berib shuni aytish mumkinki, jamiyat hayotining barcha sohalarida boshlangan erkin faoliyat jarayoni, yangi iqtisodiy siyosat prinsiplari va tarkibiy qismlarining birgalikdagi sa'y-harakatlari vayronagarchilikni sekin-asta tugatishga va xo‘jalik hayotining tiklanishiga olib keldi. Iqtisodiy jonlanish sanoatni, hunarmandchilik ishlab chiqarishini, qishloq xo‘jaligini qamrab, tovar-pul munosabatlarida o‘z ifodasini topdi. Biroq, bolsheviklar andozasida bo‘lsa ham harakatga tushirilgan yangi iqtisodiy siyosat Turkistondagi istiqlolchilik kurashlari yangi bosqichining avj olishi natijasida o‘zini to‘liq namoyon qila olmadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Р.Абдуллаев, М.Рахимов (2019). Узбекистон тарихи. 1-жилд. Toshkent, “Ozbekiston” nashriyoti.
2. B.J. Eshov, A.A. Adilov (2005). Ozbekiston tarixi. Toshkent.
3. Р.Х. Муртазаева (2003). Узбекистон тарихи. Тошкент. “Янги аср авлоди” нашриёти.
4. D.A. Alimova, R.H. Karimov (2004). Ozbekiston tarixi. Toshkent, “Sharq” nashriyoti.
5. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova (2006). Ozbekiston tarixi. Toshkent, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti.

<sup>7</sup>. История Узбекской ССР с древнейших времен до наших дней. Под редакцией И.М. Муминова. - Ташкент: «Фан», 1974. 306-бет.

6. B. T. Ataxanov, M. B. Isabayev - FUQAROLIK JAMIYATI FANIDAN ATAMALAR LUG'ATI.
7. Q.Usmonov, M.Sodiqov; O'zbekiston tarixi(1917-1991-yillar) T.2018
8. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov - Vatan tarixi 3-kitob, T, 2010.
9. Q. Rajabov, M. Haydarov - Turkiston tarixi, T, 2002.
- 10.Ўзбекистоннинг янги тарихи Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида, Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С. Камолов ва б. Тошкент: Шарқ, 2000.
11. Ульмасов А. Национализация промышленности в советском Туркестане. Ташкент, 1960.
12. З. Кудратов, И. Шоймарданов - Ўзбекистон тарихи. 1-том, Т, 2019